

## HOZIRGI DAVR SHE'RIYATIDA IJTIMOIIY MASALALAR TALQINI: BEK ALI IJODI MISOLIDA

**Asqaraliyeva Nigora Oybek qizi**

ToshDO'TAU OTAT 3-kurs talabasi

[nigoraasqaraliyeva@gmail.com](mailto:nigoraasqaraliyeva@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi o'zbek she'riyatining ko'zga ko'ringan ijodkori Bek Ali (Begali Eshonqulov) ning "Voh" to'plamidan o'rin olgan she'rlari tahlilga tortildi. Shoir ijodida xalqona ohang, ijtimoiy kayfiyat, Vatan kabi mavzular she'rlari misolida sharhlanishga harakat qilindi. She'riyatdagi mavzular tadriji, ularning xilma-xilligi, sarlavha qo'llash mahorati Bek Ali she'rlari misolida yoritildi.

**Kalit so'zlar:** Xalqona ohang, she'riyatda ijtimoiylik, ijodkor kayfiyati, mahorat, doston, ballada.

### ABSTRACT

In this article, the poems of the prominent creator of modern Uzbek poetry Bek Ali (Begali Eshankulov) from the collection "Voh" were analyzed. In the poet's work, an attempt was made to comprehend the folk tone, social mood, such topics as the Motherland. On the example of Bek Ali's poems, the development of themes in poetry, their diversity, and the mastery of the use of titles are highlighted.

**Keywords:** Folk tone, sociality in poetry, creative mood, skill, epic, ballad.

Ma'lumki, davrlar almashgan sayin adabiyotdagi ruh ham, mavzu ham turlanib boraveradi. Aslini olganda, insonga so'z berilgan kundan buyon to bugungacha mavzular, masalalar barmoq bilan sanarli, lekin ularga yondashuv har bir ijodkorning qalamidan o'zgacha, turlicha to'kiladi. Shunday ekan, bugungi kun she'riyati XX asrning 30-yillaridan keyin shakllana boshladi. Ungacha bo'lgan adabiyotda she'riyatning aruz tizimiga asoslangan mumtoz janrlariga, xalq dostonlariga duch kelganmiz. Ammo bugungi she'riyat tamomila farq qiladi, ham janr jihatidan, ham mavzu jihatidan. XXI asr o'zbek she'riyatida aruz uslubida ijod qiluvchilar juda oz, barmoq bilan sanarli. Biroq barmoq she'r tizimi ham negadir o'z ahamiyatini yo'qotib borayotgandek. Shoirlar kayfiyatidagi erkinlikka tashnalik yozgan she'rlari shakliga ham ta'sir qilmay qolmayapti. Shunga qaramay, barmoq tizimi xalqona ohangga yaqinligi, barchaga tushunarli va o'qishga qulayligi bilan oldingi qatorni egallaydi. 90-yillarning boshlarida adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek: "Bir

paytlar adabiy hodisalarni sof estetik voqea sifatida qarashdan voz kechgan adabiyotshunoslik uchun endilikda ham ularni faqat ijtimoiy hodisalar sifatida o'rganish noqulay bo'lib qoldi". Darhaqiqat, adabiyotning bosh mavzusi avvalo insondir, lekin badiiy asarni haddan ortiq ijtimoiylashtirib yuborish, unga mafkuraviy ta'sir o'tkazish undan zerikishga, bora-bora ishonchsizlikka olib keladi. Bugungi she'riyatning bundan 30 yil avvalgi she'riyatdan farqi ham ana shunda, hozirgi davr ijodkorlari tobora ichki dunyoga "qamalish", insonga "qaytish" jarayonini boshdan kechirmoqda. Ana shunday ijod qilayotgan shoirlardan biri esa Bek Alidir. Bek Ali (Begali Eshonqulov) 1992-yil Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidan tug'ilgan. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi. Yozuvchilar uyushmasining "Birinchi kitobim" ruknida "Men axir senman" kitobi nashr etilgan. Shoirning biz tadqiq etmoqchi bo'lgan "Voh" she'riy to'plami 2023-yil nashrdan chiqdi. Ushbu kitobdan bugungi kunda kam ijod qilinadigan doston, she'riy esse, ballada kabi janrlar ham o'rin olgan. Kitobdan 50 ga yaqin she'rlar o'rin olgan bo'lib, "Otamning maktabda ishi bor edi...", "Kimki oshiq bu yo'llardan misoli qalandar o'tdi", "Ish kunlarining birida", "Vijdonim Tangrimga sotar, Laylijon...", "Uchib ketdim, ish ham qoldi, bola-chaqa ham" kabi fasllardan iborat. Ilk she'ri "So'zboshi o'rnida" deb nomlanib, o'ziga shoirlik qismatini nasib etgan Yaratganga bag'ishlangan:

Loyimga shoirlik maqomin berib,  
Qorgansan halollik taomin berib,  
Meni rafiqlikda Majnun etgan sen,  
Laylimga qovurg'am davomin berib.

Haqiqatan, Majnun ilohiy ishqdan mast bo'lgan bir solik bo'lsa, shoirni shoir qiladigan ham ishqdir. Va oshiqning yagona tilagi – ma'shuqining visoliga muyassar bo'lish. Bek Ali ham she'rining oxirida:

Hatto jazosi ham Jannat emasmi,  
Meni ko'za etgan kulolim ko'rsam,  
deya yakunlaydi.

"O'rin chol haqida ballada" deb atalgan she'ri bir insonning butun hayotini she'riy tizimga solgan ko'rinishidir. Lekin bu inson ezilgan, baxtsiz, aziz bo'lmagan O'rin choldir, chunki uning farzandi yo'q.

Tirnoqqa zor edi bizning O'rin chol,  
Uzilgan tor edi bizning O'rin chol.  
Manglayi sho'r edi, qoshlari qalin,  
Sochlari qor edi bizning O'rin chol.

Chekilgan g'am edi bizning O'rin chol,  
Dunyoda kam edi bizning O'rin chol.  
Xudoyim bermasa, netsin O'rin chol,  
Axir odam edi bizning O'rin chol.  
Bolalarin quchib, bir bor kulmadi,  
O'ldi, O'rin cholning o'rni to'lmadi.

Balladadagi badiiy obrazning nomlanishi ham o'quvchi e'tiborini tortadi, har band so'ngida keladigan "O'ldi, O'rin cholning o'rni to'lmadi" misralari ham ohang, ham ma'no jihatidan mahorat bilan bitilgan. Shuningdek, she'rdagi deyarli har bir misra O'rin chol so'zlari bilan tugaydi, bu esa har bandga o'tilgan sari ta'sirlilikni orttirmay qo'ymaydi.

"Otamning maktabda ishi bor edi" she'ri ham ijtimoiy masalalarni yoritgan, mustaqillikda dastlabki yillarning shoir ko'z oldida chizilgan suratini aks ettirgan. She'rdagi voqelikka ko'ra, har yil xalqning boshiga nimadir keladi, goh qurg'oqchilik, goh yomg'irli. Ba'zida bahor kelmasidan daraxtlar gullab, hosil uvol bo'lsa, ba'zida to'qchilik ham bo'ladi. Lekin lirik qahramonning otasi har qanday holatda ham maktabga ketadi, chunki

Mazlumlar nolidi, och-nahor edi,  
Otam ko'zidagi sellari bilan  
Kurashib jo'nadi botqoq ko'chadan,  
Otamning maktabda ishi bor edi.

She'r so'ngidagi "Otamning ishi yo'q edi odamda, Otamning maktabda ishi bor edi" deb yakunlanishi o'quvchini ikki xil xulosaga olib kelishi mumkin. Biri odamlarda ishi yo'q, o'z ishi, bola-chaqasini o'ylaydigan ota, biri shuncha voqeliklarga ko'z yumishga majbur bo'lgan, ishga mahkum qilingan ota. Fikrimcha, she'rni to'liq o'qigan kitobxon ikkinchi xulosaga keladi.

Kitobdagi "Birinchi aldov" she'ri esa shoirning arzi holidir. U goh qishlog'idan ketgani uchun afsuslanadi, shoirlik havasi ortidan shaharga kelib, ijara uyiga mahkum bo'lganidan yozg'iradi, unga muhabbat baxtini bergan qizning ketishidan iztirob chekadi va so'ngida:

Meni aldadilar – orzular quyosh,  
Meni aldadilar – umidlar oydir.  
Ko'ksimday keng dala, qo'ydayin yuvosh  
Bek Ali birinchi aldangan joydir.

Umuman olib qaraganda, Bek Alining uslubi, she'r ohangi va kayfiyati unchalik ham bugungi kundan xabar bermayotgan, mavzuga yondashuv o'zgacha-yu, lekin tashbeh-u timsollar ortiq ijtimoiylashib ketgandek. Biroq she'rlar birma-bir o'qib borilar ekan, bugungi she'riyatning eng birinchi yutug'i bo'lmish original tashbeh-tasvirlarga ham duch kelasiz.

Yupunlik, yupunlik – gazak olgan tish,  
O'n yillik jondir, bu – uzilmagan jon.

\*\*\*

Dengiz kabi ko'rinar osmon,  
Xudo kabi tuyular aqcha.  
Nogironday onajon tilim,  
Shifokorday yetti yot lahja.

“Kimki oshiq bu yo'llardan misoli qalandar o'tdi” faslida shoirning eng xalqchil she'rlari o'rin olgan. Bu ham she'r ritmida, ham ramzlarda seziladi. Hatto “O'tar” nomli she'rida mumtoz adabiyot unsurlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Uning oyday ruxsori bor,

Boqishlari ruh sori bor misralaridagi tajnis ham yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. “Hovuz” she'rini o'qib esa, Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha”si beixtiyor yodga tushadi. She'r Toshkentdagi bir hovuz haqida, uni esa shoir o'ziga o'xshatadi.

Hislari ochiq uning,  
Goh chayqalar, goh toshar.

Yonidagi yasama  
Qirg'oqdan baxtli yashar!

She'r – iste'dod mahsuli, ko'ngil mulki. Olamni shoirona idrok etolmaydigan, uning boshqalarga noma'lum jihatlarini ko'ra olmaydigan kishi shoir bo'lolmaydi. O'qib shoir bo'lish mumkin emas. Shoirlilik – qismat. Shoir bo'lmaslikning uddasidan chiqqa olmaydiganlar qismati [Қозоқбой Йўлдошев, 2006]. Chindan ham, “Hovuz” she'rida ramzlar orqali aks etgan shoir tug'ulari, yozganlar “qirg'oq”dek yasama bo'lmasligi kerak, u hovuzdagi suv kabi xalq yuziga oyna tutishi lozim. Bunday kayfiyat keyingi she'rlarda ham davom etadi.

Qator turar terakzor,  
Asrlardir un elak.  
Un elakda shoirlar,  
Shoirlar qaysar kepak.  
Oq terak-u ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?

\*\*\*

Seni izlab bormoqchiydim,  
Bo‘zlab-bo‘zlab bormoqchiydim.  
“Shoir elning yuzi!” deya,  
Shohimizdan qaror o‘tdi.

Bek Alining ba‘zi she‘rlarida bugungi hayot tarziga biroz nafrat, biroz alamzadalik kayfiyati seziladi. Ayniqsa, qishloq va shahar mavzulari ketganda. She‘rlarida sheva elementlarini ham kuzatamiz, qaysidir misrada ertachiroq so‘zini qo‘llansa, boshqasida tuvib, dovur kabilarga duch kelamiz.

O‘n yilki, tugamas dunyoning ishi,  
O‘n yilki, boshlanmas biz istagan kun.

\*\*\*

Qishloqqa boramiz biz faqat, hali  
Biz faqat qishloqqa bora olamiz!

\*\*\*

Men yig‘lab, ularning kulganin ko‘rdim,  
Endi boylar bilan o‘ynamayman, do‘st!

So‘zimiz boshida Bek Ali ijodidagi xalqona ohang haqida to‘xtalgan bo‘lsak, endi xalq og‘zaki ijodining shoirga ta‘sirini she‘rlari orqali yoritib bersak. Bek Ali aksariyat she‘rlarida tarixiy yoki afsonaviy shaxs nomini keltiradi, xoh Sulaymon, xoh Namrud, ba‘zan Vomiq, ba‘zan Uzro. Hatto “Ko‘ringay” she‘rida “Alpomish dostonidan, “Kimki oshiq”da esa “Vomiq va Uzro”dan epigaf keltiradi. Bundan kelib chiqadiki, xalq dostonlari, afsonalar, tarix shoir ijodida yanayam yangi ohanglar topgan.

Quv og‘ochga yalinib  
Xolbeka qon yig‘laydi.

\*\*\*

Qo‘rqaman, qo‘rqaman, bir kunlar kelib  
Quduqlar so‘zlasa, bir pul bo‘lurman .

\*\*\*

Oshiqlarga azob-u  
Ma‘shuqlarga qulluq ber.  
Ko‘ksim to‘la dardlarni  
Aytgani bir quduq ber .

\*\*\*

Va sening o‘rningda kutar Oybarchin,  
Men chohdan chiqolmay o‘larman balkim?!

Shoirning sarlavha tanlash mahoratiga keladigan bo‘lsak, “Bu kunlar” she‘ridagi yoki “Marsdan qaraganda” she‘riy esesidagi tasvir va nomlanish bir-birini to‘ldirgan. Xususan, “Bu kunlar” she‘rida hozirgi kundalik hayotimizning achchiq haqiqatlari qalamga olinadi-yu, zamoni ochiqlanmaydi, chunki sarlavhaning o‘zi she‘rni to‘liq ta‘riflab turibdi.

“Amaldorlar”, deya e‘zozlab  
yashayapmiz qo‘g‘irchoqlarni.

\*\*\*

O‘pqqon kabi ko‘zi och hokim  
el-ulusga bo‘ladi o‘rnak.  
Oltin ko‘lda oqqush da‘vosin  
qilar emish uch-to‘rtta go‘dak.

Yoki “Marsdan qaraganda” she‘riy esesi yana bir shoirning hayotini hikoya qiladi, lirik qahramon Marsdan turib Yerdagi qiyofadoshining (aslida, o‘zining) hayotini yuqoridan kuzatadi. Marsdagi muallaqlik-u yolg‘izlik Yerdagi olomonlik va absurd hayotdan g‘oyat avlodir, bu dunyoda tashvish ortidan quvib, sevib-sevilmay, qo‘msab-qo‘msamay, butun dunyoni ishxonadan iborat deb biladiganlar hayoti tasvirlanadi she‘rda. Shoir esa buni;

Qani, ey yerliklar, tezroq bo‘linglar,  
O‘lmasdan burun o‘linglar, deya achchiq istehzo bilan yakunlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Bek Ali she‘rlari ham insonga “qaytish”, ham xalqqa ko‘zgu bo‘lish xususiyatlariga ega. Zamonaviy she‘riyatda kam uchraydigan doston, ballada, ayniqsa, bular ko‘tarib chiqqan mavzu e‘tiborga molik. Mumtoz she‘riyat elementlari ko‘zga tashlanadigan she‘rlari ham xalqchildir. To‘g‘ri, adabiyot har qanday mafkuradan xoli, estetik zavq ulashuvchi, ko‘ngil mulki bo‘lishi kerak, lekin har bir inson ham Haqqa va xalqqa tegishlidir. Shoir kishi esa ko‘z oldidagi zulmga, xo‘rliklarga qaramay muhabbat haqida baralla kuylay olmaydi. Bek Ali aytganidek, she‘rlar Vataniga yordam berolmay, qog‘ozlarda qolib ketmasligi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Воҳ: Шеърлар/ Бек Али. – Тошкент: “Anorbooks”, 2023.
2. Фахриёр. (2020) Метаҳикоялар оралаб. Тошкент: Akademnashr.
3. Қозокбой Йўлдошев «Ёниқ сўз». «Янги аср авлоди», 2006 йил.